

INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLAR

*Toshkent TMC Instituti Pedagogika
fanlar kafedrası o'qituvchisi
Eshmamatova Sitara.*

*Toshkent TMC Instituti Maktabgacha
ta'lim sirtqi yo'nalishi talabasi
Saidislomova Odinaxon Dilshod qizi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida inklyuzivlik tamoyillarini joriy etishda pedagogik va psixologik yondashuvlarning o'rnini hamda ahamiyati keng yoritiladi. Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda o'quv jarayonining differensial yondashuv asosida olib borilishi, pedagog va psixolog hamkorligining dolzarbligi, shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlash mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, pedagogik yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash, differensial ta'lim, adaptatsiya, integratsiya, ijtimoiy moslashuv.

Bugungi globalashuv va innovatsion rivojlanish davrida ijtimoiylashuv jarayonlari fan-texnika taraqqiyoti, ilmiy yangiliklar va zamonaviy jamiyatning ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanmoqda. Ayniqsa, yosh avlod uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar ularning nafaqat ijodiy fikrlashni rivojlantirish va innovatsion tafakkurni shakllantirishini, balki intellektual salohiyatini oshirishini ham taqozo etmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning milliy qadriyatlarga sodiq qolishi va umuminsoniy tamoyillarni hurmat qilishi ham muhim mas'uliyat sifatida qo'yilmoqda.

Shu jarayonda inklyuziv ta'lim (qo'shma ta'lim) alohida o'rin tutadi. U nogironligi bo'lgan shaxslar va cheklovlarisiz o'quvchilarning birgalikda ta'lim olishini, qo'shma mashg'ulotlarda ishtirok etishini, dam olish va qo'shimcha ta'lim shakllaridan teng ravishda foydalanishini nazarda tutadi. Biroq, umumiy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan maxsus (tuzatish) sinflari yoki kompensatsion guruhlarni inklyuziv ta'lim bilan to'la tenglashtirish mumkin emas. Amaldagi tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, bunday sinflardagi ta'lim ko'proq integratsiyalashgan ta'lim sifatida ko'rib chiqilmoqda, inklyuziv ta'lim esa bundan kengroq tushuncha hisoblanadi.

Pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli kechishi, avvalo, o'qituvchilarning shaxsiy yondashuviga bog'liq. O'qituvchilar har bir o'quvchining qobiliyatini ko'ra olishlari, uni qadrlashlari va noxolis munosabatdan yiroq bo'lishlari zarur.

Bag'rikenglik, xolislik va shaxsiy yutuqlardan qat'i nazar munosabatda bo'lish inklyuziv ta'lim pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. Zero, insonning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, millati yoki jismoniy imkoniyatidan qat'i nazar unga teng sharoit yaratish zamonaviy ta'limning ajralmas qismidir.

Inklyuziv ta'lim samarali faoliyat yuritishi uchun maxsus shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday shart-sharoitlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kichik sinf guruhlarini shakllantirish, bu orqali har bir o'quvchiga individual e'tibor qaratish;
- qo'shimcha pedagogik xodimlar, jumladan maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislarni jalb qilish;
- har bir o'quvchi ehtiyojiga moslashtirilgan individual ta'lim dasturlari, rejalar va o'quv materiallarini ishlab chiqish;
- zarur qulayliklarni yaratish, jumladan maxsus transport vositalari va moslashtirilgan o'quv muhitini tashkil etish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion metodlardan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish [2].

Shuni alohida qayd etish kerakki, inklyuziv ta'lim nafaqat metodik-uslubiy yondashuvni, balki pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlashni ham taqozo etadi. Chunki bu jarayonda bolaning ta'lim olish imkoniyatlarini hisobga olish bilan birga, uning ruhiy holati, jamoadagi moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'limni pedagogik nuqtai nazardan samarali tashkil etish bir qator tamoyillarga asoslanadi:

- Individual va differensial yondashuv. Har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini, qiziqishlarini va o'zlashtirish sur'atini inobatga olgan holda o'qitish jarayonini moslashtirish zarur. Bu orqali ta'lim jarayonida barcha o'quvchilar faol ishtirok etishi ta'minlanadi.
- Moslashtirilgan o'quv dasturlari va metodlar. Imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlari uchun maxsus o'quv vositalari, multimedia texnologiyalari, didaktik materiallar va interfaol usullarni qo'llash muhimdir.
- Pedagogning kasbiy tayyorgarligi. Inklyuziv ta'limda faoliyat yuritayotgan pedagogdan yuqori malaka, sabr-toqat, bag'rikenglik va ijodkorlik talab etiladi. O'qituvchi bolalarda o'ziga ishonch va motivatsiyani shakllantira olishi zarur.
- Hamkorlik va jamoaviy ta'lim. Sinfdan sog'lom ijtimoiy muhit yaratish, o'quvchilarda bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamjihatlik va do'stona munosabatlarni shakllantirish pedagogik yondashuvning muhim tarkibiy qismidir.

Inklyuziv ta'lim samarali kechishi uchun o'quvchilarning ruhiy holatiga e'tibor qaratish muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonda psixologik yondashuv bir nechta asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Avvalo, psixologik qo'llab-quvvatlash va maslahat berish orqali har bir bolaning shaxsiy qiyinchiliklari aniqlanadi hamda ularni yengishda mutaxassis yordam ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilarda o'z imkoniyatlariga ishonch uyg'otish, kichik yutuqlarini ham qadrlash va rag'batlantirish ularning motivatsiyasini oshirib, o'qishga qiziqishini kuchaytiradi. Yana bir muhim jihat — bu moslashuv jarayonini yengillashtirishdir. Sinfga yangi kelgan yoki maxsus ehtiyojli bolalar uchun do'stona muhit yaratish, ularni asta-sekin ijtimoiy hayotga qo'shib borish zarur. Bundan tashqari, stress va ichki kechinmalarni kamaytirish ham ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omillardan biridir. Psixologik treninglar, o'yinlar va suhbatlar orqali bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, ruhiy bosim esa kamayadi. Shu tarzda, inklyuziv ta'lim jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlash o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi [4].

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim tizimini samarali tashkil etish uchun pedagogik va psixologik yondashuvlar uyg'unligi zarur. Pedagog dars jarayonini metodik jihatdan moslashtirsa, psixolog o'quvchilarning ruhiy holatini qo'llab-quvvatlaydi. Natijada, imkoniyati cheklangan bolalar ham o'z tengdoshlari qatori ta'lim jarayonida faol ishtirok etib, jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun shart-sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adilova, M. S. (2025). Forming students' psychological readiness for pedagogical activity in inclusive education. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 5(05), 7-9. <https://eipublication.com/index.php/jsshrf/article/view/2917>
2. Evans, W., Gable, R. A., & Habib, A. (2021). Lessons from the past and challenges for the future: Inclusive education for students with unique needs. *Education Sciences*, 11(6), 281. <https://doi.org/10.3390/educsci11060281>
3. Inclusive education in Uzbekistan and its role in society development. (2025). *Scientific Journal of National University of Uzbekistan*, 2(1), 215-224. <https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/view/6850>
4. Navas-Bonilla, C. d. R., Guerra-Arango, J. A., Oviedo-Guado, D. A., & Murillo-Noriega, D. E. (2025). Inclusive education through technology: A systematic review of types, tools and characteristics. *Frontiers in Education*, 10, 1527851. <https://doi.org/10.3389/feduc.2025.1527851>